



Nargiza YAKIBOVA,

Mustaqil tadqiqotchi (PhD) Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston

E-mail: yakibovan@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD S. Botirova taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE COMMUNICATIVE COMPETENCE APPROACH IN TEACHING ENGLISH

Аннотация

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the communicative competence approach in teaching English. The linguistic and pedagogical interpretations of the concept of communicative competence, its structural components, and its methodological significance in the process of foreign language teaching are examined. The scientific views of scholars such as Dell Hymes, M. Canale, M. Swain, and J. Littlewood on communicative competence are also systematically analyzed. The study substantiates the role of the communicative approach in the paradigm of modern language education and its pedagogical effectiveness in the process of teaching English.

Key words: Communicative competence, communicative approach, foreign language teaching methodology, linguistic competence, discourse competence, pragmatic competence, English language education.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы коммуникативного подхода в обучении английскому языку. Рассматриваются лингвистические и педагогические интерпретации понятия коммуникативной компетенции, её структурные компоненты, а также методологическое значение в процессе обучения иностранным языкам. Кроме того, системно анализируются научные взгляды таких ученых, как Делл Хаймс, М. Канале, М. Суэйн и Дж. Литтлвуд, посвященные коммуникативной компетенции. В исследовании обосновывается роль коммуникативного подхода в парадигме современного языкового образования и его педагогическая эффективность в процессе обучения английскому языку.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, коммуникативный подход, методика обучения иностранным языкам, лингвистическая компетенция, дискурсивная компетенция, прагматическая компетенция, обучение английскому языку.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA YONDASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiya yondashuvining nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining lingvistik va pedagogik talqinlari, uning tarkibiy komponentlari hamda chet tillarni o'qitish jarayonidagi metodologik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Dell Hymes, M. Canale, M. Swain, J. Littlewood kabi olimlarning kommunikativ kompetensiya haqidagi ilmiy qarashlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuvning zamonaviy til ta'limi paradigmasidagi o'rni va uning ingliz tilini o'qitish jarayonidagi pedagogik samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ kompetensiya, kommunikativ yondashuv, chet tilini o'qitish metodikasi, lingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ingliz tili ta'limi.

Kirish. XXI asrda globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro kommunikatsiyaning kengayishi hamda bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi chet tillarini o'qitish tizimiga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro muloqot vositasi sifatida keng qo'llanilishi ta'lim tizimida ushbu tilni samarali o'qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida til o'rganish jarayoni faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda real kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiya yondashuvi zamonaviy chet tillarni o'qitish nazariyasida markaziy tushunchalardan biri sifatida qaraladi. Uning ilmiy ildizlari avvalo "kompetensiya" tushunchasining tilshunoslik doirasida talqin qilinishi bilan bog'liq. N.Chomsky "linguistic competence" tushunchasi orqali til egasining ichki grammatik bilimlar tizimini (qoidalarni bilish va gap tuzish qobiliyati) nazarda tutadi [1]. Biroq bu yondashuv tilning ijtimoiy-

amaliy funksiyalarini yetarli darajada izohlamagani sababli, keyingi tadqiqotlarda kompetensiya talqini kengaytirildi.

D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, tilni bilish faqat grammatik tizimni bilish emas, balki til birliklarini muayyan ijtimoiy vaziyat va madaniy kontekstda o'rinni qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga olishini asoslaydi [2]. Hymesning yondashuvi chet tili ta'limi metodikasida kommunikativ maqsadlarni aniq belgilashga, "til-jamiyat-madaniyat" bog'liqligini didaktik mezon sifatida kiritishga xizmat qildi. Kommunikativ kompetensiya nazariyasining strukturaviy tahlili M.Canale va M.Swain ishlarida tizimli ifodasini topadi. Ular kommunikativ kompetensiyani o'rganuvchining real muloqotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi bir necha komponentlar yig'indisi sifatida izohlaydi hamda uni lingvistik, sotsiolingvistik va strategik tarkibiy qismlarga ajratadi [3]. Ushbu model til o'qitish amaliyotida o'quv maqsadlarini (learning outcomes) kompetensiyalar kesimida belgilashga imkon berdi. Bachman kommunikativ til qobiliyatini (communicative language ability) yanada murakkab tizim sifatida talqin qilib, "organizational competence" va "pragmatic competence" (pragmatik komponent)ni ajratadi [4]. Bu yondashuv baholash (assessment) va

testologiyada ham kommunikativ kompetensiya mezonlarini aniqroq belgilashga yordam berdi. Shu tariqa, kommunikativ kompetensiya modeli "faqat bilim"dan ko'ra "bilim + qo'llash + ijtimoiy moslashuv" uchligini o'z ichiga oluvchi metodologik paradigma sifatida mustahkamlandi. Kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi amaliy metodika sifatida "Communicative Language Teaching (CLT)" yondashuvi doirasida rivojlandi. J. Littlewood CLTning nazariy-amaliy asoslarini yoritib, til o'rganish jarayonida o'quvchini muloqot subyekti sifatida faollashtirish, real kommunikativ vaziyatlarni yaratish va ma'noga yo'naltirilgan mashqlarni ustuvor qilish zarurligini asoslaydi [6]. Savignon CLTni "kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish" sifatida izohlaydi va kommunikativ faoliyatning interaktiv xususiyatini alohida ta'kidlaydi [7]. Richards va Rodgers esa CLTni yondashuvlar tizimida konseptual asoslar, tamoyillar va sinf amaliyotiga tatbiq mexanizmlari bilan tavsiflaydi [8]. Shu bilan birga, CLTga nisbatan tanqidiy qarashlar ham mavjud: ayrim tadqiqotlar grammatik aniqlik (accuracy) va erkinlik (fluency) muvozanati, baholash mezonlari hamda katta sinflarda CLTni tatbiq etishdagi tashkiliy cheklolarni qayd etadi [9]. Kommunikativ kompetensiya yondashuvining nazariy tayanchi psixolingvistik va sotsiokonstruktiv qarashlar bilan ham uzviy bog'langan. Masalan, Krashenning "input hypothesis" g'oyasi til o'zlashtirishda tushunarli kirish (comprehensible input) muhimligini asoslab, CLTdagi autentik muloqot muhitini nazariy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi [10]. Longning "interaction hypothesis" yondashuvi esa til o'zlashtirishda interaktsiya va "negotiation of meaning" (ma'no bo'yicha kelishuv) jarayonining hal qiluvchi rolini ko'rsatadi [11]. Swain "output hypothesis" orqali o'rganuvchining tilni ishlab chiqarishi (speaking/writing) til tizimidagi bo'shliqlarni anglash va to'ldirishga xizmat qilishini ilmiy asoslaydi [12]. Bu g'oyalar kommunikativ kompetensiya yondashuvida "muloqotning o'zi"ni til rivojlanishining mexanizmi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Shuningdek, Vygotskiyga tayangan sotsiokonstruktiv yondashuvda til o'rganish ijtimoiy o'zaro ta'sir, kooperatsiya va mediatsiya orqali amalga oshishi ta'kidlanadi [13]. Bu nuqtai nazardan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun hamkorlikda o'qitish, dialogik ta'lim, scaffolding (bosqichma-bosqich ko'mak) va refleksiya mexanizmlari metodik jihatdan muhim bo'ladi. Hallidayning funksional tilshunosligi esa tilni "ma'no yaratish resursi" sifatida ko'rib, CLTning ma'noga yo'naltirilgan (meaning-focused) didaktikasiga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [14].

O'zbekiston metodik maktabida chet tilini o'qitish masalalari, xususan, kompetensiyaviy yondashuv va kommunikativlik tamoyillari haqida muayyan ilmiy-metodik qarashlar shakllangan. J. Jalolov chet til o'qitish metodikasida maqsad, mazmun, tamoyil va metodlar tizimini yoritib, til o'qitishda nutqiy amaliyot, mashq turlari va metodik dizaynning ilmiy asoslarini ta'kidlaydi [15]. Zamonaviy metodlar bo'yicha mahalliy qo'llanmalarda kommunikativ faoliyatni tashkil etish, interaktiv usullar va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyalari izohlanadi [16]. Shuningdek, umumta'lim tizimida chet tili o'qitish metodikasiga doir darslik va qo'llanmalarda kompetensiyaviy natijalar, nutq faoliyati turlari integratsiyasi hamda muloqotga yo'naltirilgan mashqlar doirasida CLT elementlari yoritib boriladi [17]. Mahalliy adabiyotlarning afzalligi shundaki, ular o'qitishning milliy sharoitlari (sinflar hajmi, o'quv reja, baholash, o'quvchi motivatsiyasi, o'qituvchi tayyorgarligi) nuqtai nazaridan metodik tavsiyalar beradi. Biroq ayrim holatlarda xorijiy modellarning (Canale-Swain, Bachman, Celce-Murcia) to'liq strukturaviy integratsiyasi hamda kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlarining (assessment rubric) ilmiy asoslangan tizimi yetarli darajada batafsil yoritilmaydi. Bu esa mazkur maqolada nazariy-metodologik tahlilni chuqurlashtirish hamda xalqaro va mahalliy qarashlar o'rtasida konseptual uyg'unlikni ko'rsatish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Chet tillarini o'qitishda kommunikativ kompetensiya yondashuvi muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning tilni nafaqat

nazariy jihatdan bilishi, balki uni turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo'llay olishini ta'minlashga qaratilgan. Kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi tilshunoslik, psixolingvistik va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan bo'lib, u zamonaviy til o'qitish metodikasining muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Tilshunos olim N. Chomsky tomonidan ilgari surilgan "lingvistik kompetensiya" tushunchasi til bilimlarining grammatik tizimini bilish qobiliyatini anglatadi [18]. Biroq, keyinchalik amerikalik tilshunos Dell Hymes ushbu nazariyani kengaytirib, tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini ham nazarda tutuvchi kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi [19]. Hymesning fikriga ko'ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni bilish bilan emas, balki uni muayyan ijtimoiy kontekstda to'g'ri qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Keyingi yillarda kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi til o'qitish metodikasida keng rivojlantirildi. Xususan, M.Canale va M.Swain kommunikativ kompetensiyani strukturaviy modelini ishlab chiqib, uning tarkibiy komponentlarini aniqlab berdilar [20]. Ularning fikricha, kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar yig'indisidan iborat murakkab tizimdir. Ushbu model til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuvni shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda kommunikativ yondashuv chet tillarini o'qitishning eng samarali metodlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarni faol muloqot jarayoniga jalb etish, tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash hamda nutq faoliyatining barcha turlarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababli kommunikativ kompetensiya yondashuvining nazariy asoslarini chuqur o'rganish til ta'limi metodikasini takomillashtirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiya yondashuvining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda uning zamonaviy til ta'limidagi pedagogik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilshunoslik va pedagogika fanlarida muhim nazariy kategoriya sifatida qaraladi. Mazkur tushuncha til o'rganish jarayonida shaxsning til birliklaridan turli kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Lingvistik kompetensiya nazariyasining asoschisi bo'lgan N.Chomsky til bilimlarini insonning ichki lingvistik tizimi bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, til kompetensiyasi grammatik qoidalarni bilish hamda cheksiz miqdordagi gaplarni hosil qila olish qobiliyatini ifodalaydi [21]. Biroq ushbu nazariya tilning ijtimoiy funksiyasini yetarli darajada hisobga olmaydi. Shu sababli amerikalik sotsiolingvistik Dell Hymes lingvistik kompetensiya tushunchasini kengaytirib, kommunikativ kompetensiya nazariyasini ishlab chiqdi. Hymesga ko'ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni bilish emas, balki til vositalarini ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [22]. Bu yondashuv tilni ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Kommunikativ kompetensiya konsepsiyasining keyingi rivojlanishida M.Canale va M.Swain muhim ilmiy hissa qo'shdilar. Ular kommunikativ kompetensiyani quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatadilar:

Lingvistik kompetensiya – tilning grammatik, fonetik va leksik tizimini bilish;

Sotsiolingvistik kompetensiya – til birliklarini ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo'llash qobiliyati;

Diskursiv kompetensiya – nutqni mantiqiy va izchil tarzda tashkil etish qobiliyati;

Strategik kompetensiya – kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiyalaridan foydalanish qobiliyati [23].

Mazkur komponentlar til o'rganish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois kommunikativ kompetensiya modeli chet tillarini o'qitish metodikasida muhim nazariy asos sifatida qaraladi. Pedagogika sohasida kommunikativ yondashuvni rivojlantirishda J.Littlewood ham muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning

fikricha, kommunikativ til o'qitish metodikasi o'quvchilarni real kommunikativ faoliyatga jalb etish orqali til o'rganish jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi [24]. Kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi zamonaviy til o'qitish metodikasining muhim nazariy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha shaxsning til vositalaridan turli kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya modeli tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika hamda pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan bo'lib, uning tarkibiy tuzilmasi bir necha ilmiy komponentlardan iborat.

Til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan kommunikativ kompetensiya modeli M.Canale va M.Swain tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u til o'rganuvchining kommunikativ faoliyatini ta'minlovchi bir necha asosiy kompetensiyalar yig'indisidan tashkil topgan [25]. Mazkur model keyinchalik boshqa olimlar tomonidan takomillashtirilib, zamonaviy til ta'limining metodologik asosiga aylangan. Kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy elementlaridan biri lingvistik kompetensiya hisoblanadi. Ushbu kompetensiya tilning grammatik, fonetik va leksik tizimlarini bilish hamda ulardan nutq jarayonida to'g'ri foydalanish qobiliyatini anglatadi. Lingvistik kompetensiya tilning strukturaviy tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Lingvistik kompetensiya nazariy jihatdan N.Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan "linguistic competence" tushunchasiga asoslanadi. Olimning fikriga ko'ra, til kompetensiyasi insonning ichki lingvistik bilimlari tizimi bo'lib, u grammatik qoidalarni bilish hamda ular asosida cheksiz miqdordagi gaplarni hosil qilish qobiliyatini ifodalaydi [26]. Biroq, zamonaviy til o'qitish metodikasida lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning faqat bir komponenti sifatida qaraladi. Chunki til o'rganish jarayonida faqat grammatik bilimlarni egallash yetarli emas, balki ushbu bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish ham muhim hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya modelining muhim komponentlaridan biri sotsiolingvistik kompetensiya hisoblanadi. Ushbu kompetensiya til birliklarini ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Sotsiolingvistik kompetensiya til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettiradi. Sotsiolingvistik kompetensiya tushunchasi Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga asoslanadi. Hymesning ta'kidlashicha, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni bilish emas, balki til birliklaridan muayyan ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [27].

Diskursiv kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim komponentlaridan biri bo'lib, nutqni mantiqiy va izchil tarzda tashkil etish qobiliyatini anglatadi. Diskursiv kompetensiya orqali til o'rganuvchi alohida gaplarni bir-biri bilan bog'lab, yaxlit nutq

tuzilmasini hosil qila oladi. Diskursiv kompetensiya nutq faoliyatining barcha turlarida - tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu kompetensiya nutqning mantiqiy izchilligini ta'minlovchi grammatik va leksik vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Til o'qitish metodikasida diskursiv kompetensiyani rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalaniladi. Xususan, dialoglar tuzish, muhokama tashkil etish, hikoya yaratish hamda matnlarni tahlil qilish kabi faoliyat turlari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish jarayonini takomillashtirish muhim ilmiy va metodik masalalardan biri hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro kommunikatsiya doirasining kengayishi hamda ingliz tilining global muloqot vositasi sifatida ahamiyatining ortib borishi til o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan kommunikativ kompetensiya yondashuvi ingliz tilini o'qitishning samarali nazariy-metodologik asoslaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kommunikativ kompetensiya tushunchasi dastlab N.Chomsky tomonidan ilgari surilgan lingvistik kompetensiya nazariyasiga asoslanib, keyinchalik D.Hymes tomonidan ijtimoiy va kommunikativ omillar bilan boyitilgan holda rivojlantirilgan. M.Canale va M.Swain tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modeli esa uning tarkibiy komponentlarini ilmiy jihatdan tizimlashtirishga xizmat qildi. Ushbu model lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar majmuasi sifatida talqin qilinadi hamda chet tilini o'qitish metodikasining muhim nazariy asosini tashkil etadi.

Maqolada olib borilgan ilmiy tahlillar kommunikativ kompetensiya yondashuvi til o'rganish jarayonida o'quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv tilni faqat grammatik bilimlar tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy-kommunikativ faoliyat vositasi sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Shu sababli kommunikativ til o'qitish metodikasi o'quvchilarning nutq faoliyati turlarini kompleks rivojlantirish, ularni interaktiv muloqot jarayoniga jalb etish hamda autentik kommunikativ vaziyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kommunikativ kompetensiya yondashuvining zamonaviy til ta'limi paradigmasida muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda til o'rganish jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. - Cambridge, MA: MIT Press, 1965. — 251 p.
2. Hymes D. On Communicative Competence. In: J. Pride, J. Holmes (Eds.). Sociolinguistics. - Harmondsworth: Penguin, 1972. - P. 269-293.
3. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. — Applied Linguistics, 1980. - Vol. 1(1). - P. 1-47.
4. Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy. In: J. Richards, R. Schmidt (Eds.). Language and Communication. - London: Longman, 1983. - P. 2-27.
5. Bachman L. Fundamental Considerations in Language Testing. - Oxford: Oxford University Press, 1990. - 408 p.
6. Celce-Murcia M., Dörnyei Z., Thurrell S. Communicative competence: A pedagogically motivated model with content specifications. - Issues in Applied Linguistics, 1995. - Vol. 6(2). - P. 5-35.
7. Littlewood W. Communicative Language Teaching. - Cambridge: Cambridge University Press, 1981. - 108 p.
8. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. - Reading, MA: Addison-Wesley, 1983. - 343 p.
9. Richards J.C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). - Cambridge: Cambridge University Press, 2014. - 410 p.
10. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (2nd ed.). - New York: Pearson Education, 2001. - 491 p.
11. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. - Oxford: Pergamon Press, 1982. - 202 p.
12. Long M. The role of the linguistic environment in second language acquisition. In: W. Ritchie, T. Bhatia (Eds.). Handbook of Second Language Acquisition. - San Diego: Academic Press, 1996. - P. 413-468.
13. Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output. In: S. Gass, C. Madden (Eds.). Input in Second Language Acquisition. - Rowley, MA: Newbury House, 1985. - P. 235-253.
14. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
15. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. - London: Edward Arnold, 1978. - 256 p.
16. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2012. - 304 b.
17. Otayoyeva M. Chet tillarni o'qitishning zamonaviy metodlari. - Toshkent, 2018. - 256 b.